


**Toshkent shahar
Yunusobod tumani**

**313- umumta'liz maktabining ilg'or ish
tajribali geografiya fani o'qituvchisi
Ubaydullayeva Shahnoza Ergashevnaning
8-sinf Toshkent iqtisodiy geografik rayoni
mavzusiga tayyorlagan dars ishlanmasi**



Fan: Geografiya

Sana: _____

Sinf: 8

Mavzu: Toshkent iqtisodiy geografik rayoni

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad:

Toshkent iqtisodiy rayonining geografik o'rni, relyefi, tabiiy boyliklari, aholisi, xo'jaligi, tashqi iqtisodiy faoliyati va transporti haqida ma'lumot berish.

b) Tarbiyaviy maqsad:

O'lkashunoslik tarbiyasi, yashash joyiga, atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabat, ekologik tarbiya berish.

v) Rivojlantiruvchi maqsad:

Mustaqil fikr lashga, o'zaro muloqat qilishga o'rgatish, guruhlarda ishlash.

Dars jahozi:

O'zbekistonning tabiiy xaritasi, O'zbekistonning siyosiy xaritasi, Toshkent iqtisodir rayonining xaritasi, proyektor, kompyuter, filmlar, chizmalar, tarqatmalar va rag'bat kartochkalari.

Dars tipi: Aralash.

Dars turi: Interfaol.

Dars metodi: Aqliy hujum, "Loyiha texnologiyasi", guruhlarda ishlash.

Dars usullari: "Diqqatni jamlash", "Atamalar bilan ishlash", "Xarita bilan ishlash" "Topshiriqlar bajarish".

Texnik vositalar:

Kompyuter, videoproyektor, ekran.

Dars rejasi:

Darsning blok-sxemasi:

T/r	Darsning bosqichlari	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. 1.O'qituvchining kirish so'zi. Davomat. 2daqiqa. 2.Guruhash. 1 daqiqa. 3.Bugungi kun yangiligi. 2daqiqa.	5 daqiqa
2.	Guruhlarga topshiriq berish orqali o'tilgan mavzuni so'rash: 1. Atamalar bilan ishlash. 2. Aqliy hujum. Savollarga javob 3. Xarita bilan ishlash 4. Masala.	12 daqiqa 3 daqiqa 4 daqiqa 2 daqiqa 3 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni. Film namoyishi va o'qituvchining bayoni.	8 daqiqa
4.	Guruhlarda ishlash va mavzuni mustahkamlash: 1). Jadval bilan ishlash. Korxonalar. 2). Sonlar tilga kirganda. Darslik bilan ishlash. Tekshirish 3).Xarita bilan ishlash 4).Xarita taxlili 5).Sardorlar bellashuvi. "Amaliy topshiriq"	15 daqiqa 3 daqiqa 3 daqiqa 5 daqiqa 1 daqiqa 3 daqiqa
5.	Darsni yakunlash. G'olib guruhni aniqlash va o'quvchilarni baholash. Uyga vazifa.	4 daqiqa 3 daqiqa 1 daqiqa

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qisim: salomlashish, davomatni aniqlash, guruhlash:

O'quvchilar 3 ta guruhga ajratiladi.

I-guruh-Tabiatshunoslar.

II-guruh-Aholishunoslar.

III-guruh-Iqtisodchilar.

Guruh sardorlarini tayinlash.

2. Kun yangiligi.

3. Guruhda ishlash qoidalari bilan tanishtirish:

1. O'zaro hurmat.

2. O'zgalar fikrini tinglash.

3. Erkin fikrlash.

4. Intizomlilik.


5. Topqirlik.

6. Hamjihatlik.

4. Baholash mezoni bilan tanishtirish. Rag'batlar rag'bat doskasiga Toshkent iqtisodiy rayonining xaritasiga yopishtiriladi.

Baholash mezoni:

“5” ball –



Oltin

“4” ball --



-- Kumush.

“3” ball –



-- Mis

II. Uy vazifa bilan ishlash:

Guruhlarga topshiriq berish orqali o'tilgan mavzuni so'rash:

I-topshiriq. Aqliy xujum. Har bir guruhga bittadan savol beriladi. 5stadan 15ta savol.

1. Rayonlashtirish nima?

2. Rayonlashtirishning qanday turlari bor?

3. Iqtisodiy rayonlashtirganda nimalarga etibor qaratiladi?

4. Ixtisoslashuv nima?

5. Ixtisoslashuv nimaga bog'liq holda shakllanadi?

6. O'zbekiston nechta iqtisodiy geografik rayonga ajratiladi?

7. Nima uchun ba'zi iqtisodiy rayonlar bir necha hududlarni birlashtiradi?

8. 3ta viloyatni birlashtirgan iqtisodiy geografik rayon qaysi?

9. Maydonining katta qismi cho'ldan iborat iqtisodiy geografik rayon qaysi?

10. Eng yirik rangli metallurgiya va qora metallurgiya zavodlari qaysi iqtisodiy geografik rayonda?

11. O'zbekistonning eng g'arbiy qismidagi iqtisodiy geografik rayoni qaysi?

12. Toshkent qaysi iqtisodiy geografik rayonlar orasida joylashgan?

13. O'zbekistondagi yagona agliomeratsiya joylashgan iqtisodiy geografik rayon qaysi?

14. O'zbekiston oltinini yarmini beradigan iqtisodiy geografik rayon qaysi?

15. Qo'ng'ir ko'mirning hammasini beradigan iqtisodiy geografik rayon qaysi?

II-topshiriq. Atamalar bilan ishlash.

№	Tariflar	Atamalar
1	Yirik shaharlar atrofida yo`ldosh shaharlarning vujudga kelishi	Aglomeratsiya
2	Bir qancha vazifalarni bajaradigan shahar	Ko`p funksiyalari shahar
3	Geografik mehnat taqsimoti asosida o`z ixtisoslashuviga ko`ra bir-biridan farq qiluvchi hududlar	Iqtisodiy geografik rayon
4	Aholisi 1mln dan oshgan shaharlar	Millioner shaharlar
5	Kishilar sog`lig`ini tilklashi va dam olishi uchun xizmat qiladigan resurslar.	Rekratsion resurslar
6	Mamalakatning turli qismlaridagi aholini turli mehnat faoliyati bilan shug`ullanishi	Hududiy mehnat taqsimoti
7	Ishlab chiqarish sohasidagi barcha tarmoqlarga qarashli har xil korxonalarning bir umumiy hududagi o`zaro bog`langan uyg`unligi	HICHM
8	Ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot chiqaradigan tashkiliy shakli	Ixtisoslashuv
9	Ixtisoslashuv koeffitsiyentini toppish formulasi	K=M/A
10	Iqtisodiy geografik rayonlar soni	8ta

II-topshiriq. Atamalar bilan ishlash.

№	Tariflar	Atamalar
1	Yirik shaharlar atrofida yo`ldosh shaharlarning vujudga kelishi	
2	Bir qancha vazifalarni bajaradigan shahar	
3	Geografik mehnat taqsimoti asosida o`z ixtisoslashuviga ko`ra bir-biridan farq qiluvchi hududlar	
4	Aholisi 1mln dan oshgan shaharlar	
5	Kishilar sog`lig`ini tilklashi va dam olishi uchun xizmat qiladigan resurslar.	
6	Mamalakatning turli qismlaridagi aholini turli mehnat faoliyati bilan shug`ullanishi	
7	Ishlab chiqarish sohasidagi barcha tarmoqlarga qarashli har xil korxonalarning bir umumiy hududagi o`zaro bog`langan uyg`unligi	
8	Ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot chiqaradigan tashkiliy shakli	
9	Ixtisoslashuv koeffitsiyentini toppish formulasi	
10	Iqtisodiy geografik rayonlar soni	

HICHM

**Hududiy
mehnat
taqsimoti**

8 ta

K=M/A

**Ixtisosla
shuv**

**Rekratsion
resurslar**

**Ko`p funksiyali
shahar**

**Millioner
shaharlar**

**Iqtisodiy
geografik**

**Aglomeratsiy
a**

III-topshiriq. Xarita bilan ishslash. Guruhlarga nomlari yozilmagan iqtisodiy rayonlar xaritasi beriladi. Guruhlar 2 daqiqa ichida iqtisodiy rayon nomlarini yozishhadi.. Doskaga yopishtirishadi.

IV-topshiriq. Masala ishslash.
Ixtisoslashuv koeffsiyentini topish.

1-guruhga:

Toshkent iqtisodiy rayonida Respublika aholisining 19% i yashaydi. Bu rayon Respublikamiuzda ishlab chiqarilayotgan donli ekinlarning 12% ini beradi. Ushbu mahsulot rayon uchun ixtisoslashgan tarmoq bo`la oladimi yoki yo`q? $K=M/A=12%/19\%=0,63$

2-guruhga:

Toshkent iqtisodiy rayonida Respublika aholisining 19% i yashaydi. Bu rayon Respublikamiuzda ishlab chiqarilayotgan sholini 10% ini beradi. Ushbu mahsulot rayon uchun ixtisoslashgan tarmoq bo`la oladimi yoki yo`q?

$K=M/A=10%/19\%=0,52$

3-guruhga:

Toshkent iqtisodiy rayonida Respublika aholisining 19% i yashaydi. Bu rayon Respublikamiuzda ishlab chiqarilayotgan elektro energiyani 50% ini beradi. Ushbu tarmoq rayon uchun ixtisoslashgan tarmoq bo`la oladimi yoki yo`q?

$K=M/A=50%/19\%=2,6$

Yangi mavzu bayoni.

Bugun biz sizlar bilan iqtisodiy rayonlarni o`rganib boshlaymiz. Iqtisodiy geografik rayonlar har doim quyidagi tartibda o`rganiladi:

1. Geografig o`rni:

2. Aholisi.

3. Xo`jaligi:

4. Transporti.

8 ta iqtisodiy geografik rayonlarning ichida eng iqtisodiy kuchli rivojlangan rayon qaysi deb o`ylaysiz?

Toshkent iqtisodiy rayoni.

Nega?

Foydali qazilmalari ko`p bo`lgani uchunmi, foydali qazilmalar boshqa iqtisodiy rayonlarda ham bor? Lalmi yerlarmi uar ham bor, ishchi kuchlarimi ular ham bor. Eng katta sabab bu iqtisodiy geografaik rayonda O`zbekiston respublikasining poytaxti Toshkent shahri joylashganligir. Poytaxt O`zbekistonning yuragi. Uning ham madaniy, ham iqtisodiy ham ilmiy markazi hisoblanadi. Birgina Toshkent shahrida 2,3mln kishi yashaydi. Bu Sirdaryo viloyatida yashaydigan aholidayan 3barobar ko`p. Nima deb o`ylaysiz poytaxt atrofидаги вилоятнинг ахолига унинг турмуш тарзига қандай та'sir ко'rsatadi? Масалан Zangiota Qibray Parkent , Yangiyo'l каби вилоятнинг туманларда истиқомат қилайоган ахолинг турмуш тарзига қандай қулагилар туг'diradi?

Aholini ta'lif olishi қулагилашади, ishga qatnaydi, yetishtirayotgan sut go'sht sabzavot poliz va mevalarini harid qiladigan xaridorlari bor. Shuningdek sanoat korxonalari nima uchun bu darajada tez rivojlanib bormoqda?

Malakali kadrlarni ko`oligi, ularni tayyorlash va malakasinmi oshirish maskanlarini poytaxtda joylashganligidir.

Dam olish va rekratsiyani olaylik. Toshkent viloyatining tog`li hududlarida minglab kishilar dam oladi va turizmni rivojlanishiga sababchi bo`ladi. Nima boshqa viloyatlarda tog` yo`qmi? Bor lekin bu tog`lar poytaxtga yaqin. Poytaxtda esa aholi ko`p va bu aholi ilmiy, aqliy mehnatdan olgan charchog`ini va sog`lig`ini tiklash uchun o`ziga yaqin hududlardagi Bo`stonliq va Parkent tumanlarida joylashgan tog`li hududlarga boradi. Bu narsa viloyatning shu hududlartida yashovchi aholinin ham yashahsh tarsi mehnat faoliyat turmush tarziga ta'sir etadi va moddiy ta'minotini yahshilaydi.

Demak Toshkent iqtisodiy rayonining rivojlanishida Toshkent shahrining poytaxt shaharning mavjudligi uning rivojlanishiga katta ta'sir qilgan.

Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2016 yil 4 fevralda Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so`zlagan nutqida quyidagi fikrlarni bildirdilar.

“Toshkent viloyati-oddiy viloyat emas, u avvalambor poytaxt viloyati sifatida yetakchi mavqeni egallab kelmoqda. Toshkent viloyatida 2mln 770mingdan ziyodroq aholi yashaydi.

Bu viloyat 2mln tonna sabzavot, 400ming tonna kartoshka, 200ming tonnadan ziyod meva qariyb 70mln tonna uzum yetishtiradi.

Viloyat mamlakat yalpi ichki mahsulotning qariyb 10%, eletr energiyani 45% ni, po`lat prokatning-100% ni rangli metallurgiyani asosiy qismini ishlab chiqaradi.” Degan fikrlarini bildirdilar.

Shuningdek “Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish-eng oily saodatdir” asarlarida esa Toshkent vohasining sahovatli zaminida topilmaydigan tabiiy boylikning o`zi yo`q. Eng muhim bu yerdagi yuksak intellektual salohiyati, hayot sinovlarida toblangan, shuning negizida biladigan, mehnatkash, insonlar bilan har qanday murakkab va ulkan loyihalarni amalga oshirish mumkin. Deyilgan.

Iqtisodiy geografik rayonning iqtisodiy salohiyati shundaki rayon kuchli sanoatlashgan rayon bo`lib neft gaz sanoatidan boshqa barcha sanoat tarmoqlari rivojlangan.

Rayon transport bilan yahshi ta`minlangan.

Angren-Pop qurilmoqda. Bu yo`l hususida Prezidentimiz o`zlarining “Ona Yurtim baxtu iqboli va buyuk kelajagi uchun xizmat qilish oily saodatdir” asarlarida quyidagi fikrni bildirganlar.”125kmli “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo`lning 19km I dengiz sathidan 1465metr balanddan 19km li tonneldan o`tadi.” Bu mustaqil hamdo`stlik mamlakatlari orasidagi eng uzun zamonaviy tonnel bo`lib, jahonda 13-o`rinda turadi. Bu yo`l natijasida Fargona vodiysiga tashiladigan yukning vaqt 2marta qisqaradi.yuk tashish qimmatligi 4marta kamayadi.

Iqtisodiy rayon O`zbekistonning shimoli-sharqida joylashgan. Iqtisodiy rayonga Toshkent viloyati va Toshkent shahari kiradi. Toshkent shahri 1930yildan buyon O`zbekiston respublikasining poytaxti. Poytaxtning atrofidagi qishloq tumanlarining rivojlanishida ta`siri katta. Buni Zangiota tumanini Toshkent shahri bilan tutash qismida o`zimiz yashaydigan joy misolida ko`rishimiz mumkin. Masalan yonimizdag`i xalqa yolining u tomoni Zangiota tumanining qishloq tumanı bu tomoni Toshkent shahri. Zangiota tumanidan shaharga kelib ishlaydiganlar ko`payadi, xizmat ko`rsatish sohalariga talab ortadi, dehqonlar salmog`I kamayadi, dala hovlilar rekratsiya reobyektlari ko`payadi, urbanizatsiya jarayoni yani shahar turmush tarzini kengayishi tezlashadi, bir yo`la turli kasblarda ishlovchilar soni ko`payadi, tuman hududida chiqindilarni to`planishi, ekologiyani buzilishi, shahar atrofi transportining ko`payishi, ixtisoslashishning barqarorlashishi, xo`jalik yuritishning intensive yo`liga o`tishi.(74-rasm.)

Toshkent iqtisodiy rayonini O`zbekistonning darvozasi ham deb atashadi. Sababi u uchta tomondan chet davlatlar bilan chegaradosh. Shimoli-g`arbdan va shimoldan Qozog`iston, Shimoli-sharqdan va janubdan Qirg`iziston bilan qisman janubda Tojikiston bilan qo`shni. Sarqdan Farg`ona iqtisodiy rayoni Namangan viloyati bilan, janubi-g`arbdan Mirzacho`l iqtisodiy rayoni, Sirdaryo viloyati bilan qo`shni. Namangandan Qurama tog`i, Sirdaryo viloyatidan Sirdaryo daryosi ajralib turadi.

Rayonning tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografaik o`rnining qulayligi shundaki relyefining Sirdaryo daryosi tomon 100-150 kmdan ortiq masofada nishabligi, daryolar bilan yahshi ta`minlanganligi, tog`larda 500-700mmgacha yog`in tushishi va buning natijasida daryolardan ko`p elektro energiya olishimiz mumkinligi, shimol tomondan tog`lar bilan o`ralganligi bo`lsa, iqtisodiy geografik o`rnining qulayligi poytaxt shaharning shu iqtisodiy geografik rayonda joylashganligi, transport tugunlarining mavjudligi, ulkan ilmiy salohiyatga egaligi, yirik metallurgiya kombinatlarining shu hududda joylashganligidir.

Siyosiy geografik o`rnining qulayligi ancha siyosiy barqaror, tinch davlatlar bilan qo`shniligidir.

Rayonning asosiy tabiiy boyliklaridan biri suv bilan yahshi ta`minlanganligi bo`lib, asosiy daryolari G`arbiy Tyanshan tog`laridan boshlanuvchi daryolar bo`lib, ularning tog`li hududlarda joylashganligi katta gidroelektro energiya zahirasiga egaligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham Toshkent iqtisodiy rayoni mamalakat elektro-energiyesining yarmini beradi. Asosiy daryolari Chirchiq va Ohangaron bo`lib, Chirchiq daryosida 2,0 mlrd m kub sig`imiga ega

Chorvoqva Ohangaron daryosiga 2ta Ohangaron va Tuyabo`g`iz suv ombori qurilgan. Shuningdek Chirchiq daryosiga Bo`zsuv kanaligacha jami 19ta GES qurilgan.

Shuningdek iqtisodiy rayon mineral resurslarga juda boy bo`lib, Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov “Ona Yurtim baxtu iqboli va buyuk kelajagi uchun xizmat qilish oily saodatdir” asarlarida ham Toshkent viloyatining tabiiy boyliklari haqida gapirib, shunday deganlar: Toshkent vohasining sahovatli zaminida topilmaydigan tabiiy boylikning o`zi yo`q desak mubolag`a bo`lmaydi.

Darhaqiqat bu rayonda Angren qo`ng`ir ko`mir koni, uning tarkibida gilmoya, kaolin, Olmaliq mis koni, orkutsoy marmar koni, Qo`rg`oshinkon polimetal koni, Qalmoqqirkon mis koni, Miskon polimetal koni, Sargardon volfram koni, Qochbuluoq va Qizilolmasoy oltin konlari mavjud.

Aholisi.

O`zbekistonning 1/5 qismi aholisi shu yerda.

Aholisi Toshkent shahar bilan birga hisoblaganda

- 5mln 36ming 600kishi(5036600k)

Maydoni Toshkent shahar bilan birga hisoblaganda-

- 15600km.kv.
- Zichlik-323 kishi.
- Zichlik nima edi?

Urbanizatsiya 50%.

-Urbanizatsiya nima edi?

Mehnat resursiga boy.

-Mehnat resursi nima edi?

Aholining ma'lumot darajasi yuqori, sabab ilm talab korxona idoralarning ko`pligi.

Xo`jaligi.

Toshkent iqtisodiy rayoni taraqqiyot jihatidan mamalakatda 1-o`rinda. Chunki:

- 1) Qulay geografik o`rni
- 2) Poytaxt shu rayonda
- 3) Gidroquvvat
- 4) Xilma-xil foydali qazilmalarni borligi va foydalanilayotganligi
- 5) Urush vaqtida ko`p korxonalarini ko`chirib keltirilganligi
- 6) Chetdan malakali mutaxassislarini ko`plab jalb etilganligi sababdir.

Mamlakatda mavjud sanoat tarmoqlarining barchasi mavjud.

Og`ir sanoat yalpi sanoat mahsulotining -2/3qismini tashkil etadi.

Rayon mamalakat elektroenergiyasini yarmini beradi. Sababi bu rayonda 3ta yirik IESlar: Toshkent, Angren, Yangi Angren IESlari hamda 19ta GESdan iborat Chirchiq-Bo`zsuv kaskadining mavjudligi.

Iqtisodiy rayon 100dan ortiq chet mamalakatlар bilan savdo aloqasida. Paxta, ipak, paxtachilik uchun mashina va uskunalar, to`qimachilik mashinalari, kabel, ekskavatorlar, ko`tarma kranlar, elektrnergiya, qorako`l terisi rangli metallar, ip ipak gazlamalar, kanop, kanop mahsulotlari, meva eksport qiladi. Yog`och, neft, neft mahsulotlari, gaz, mashina qismlari import qiladi.

Transporti.

Avtomobil yo`llari 1930-1940yillarda vujudga kelgan. 700metrli Katta O`zbek trakti, Toshkent-Angren-Qo`qon tog` yo`li, Toshkent-Chinoz-Guliston avtotrassa, Toshkent-Angren, Toshkent-Chorvoq, Toshkent-Sirdaryo-Jizzax temiryo`llari bor. Angren-Pop qurilmoqda. Bu yo`l hususida Prezidentimiz o`zlarining “Ona Yurtim baxtu iqboli va buyuk kelajagi uchun xizmat qilish oily saodatdir” asarlarida quyidagi fikrni bildirganlar.”125kml “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo`lning 19 km I dengiz sathidan 1465 metr balanddan 19 km li tonneldan o`tadi.” Bu mustaqil hamdo`stlik mamlakatlari orasidagi eng uzun zamонавиу tonnel bo`lib, jahonda 13-o`rinda turadi. Bu yo`l natijasida Fargona vodiysiga tashiladigan yukning vaqt 2marta qisqaradi. Yuk tashish qimmatligi 4marta kamayadi.

Film namoyishi - 4daqiqa.

IV. Yangi mavzu yuzasidan guruhlarda ishlash

Jadvalni to`ldirish bilan ko`z o`ngimizda Toshkent iqtisodiy rayonining iqtisodiy salohiyati namoyon bo`ladi.

I-topshiriq. Korxonalar bilan ishlash. Daftarga yozma.

Nº	Korxona nomi	Qayerda joylashgan
1	Qora metallurgiya zavodi	
2	Mis kombinati	
3	O`tga chidamli metallarni eritish	
4	Rezina zavodi	
5	Ammofos zavodi	
6	Marmar zavodi	
7	Eng katta GRES	
8	Kimyo mashinasozligi zavodi.	
9	Sovplastital zavodi	
10	Oq sement zavodi	

Javobi

%	Korxona nomi	Qayerda joylashgan
1	Qora metallurgiya zavodi	Bekobod
2	Mis kombinati	Olmaliq
3	O`tga chidamli metallarni eritish	Chirchiq
4	Rezina zavodi	Angren
5	Ammofos zavodi	Olmaliq
6	Marmar zavodi	G`azalkent
7	Eng katta GRES	Toshkent
8	Kimyo mashinasozligi zavodi.	Toshkent
9	Sovplastital zavodi	Toshkent
10	Oq sement zavodi	Angren

I-topshiriq:Sonlar bilan ishlash.

O`quvchilarga mavzuga va matnga tegishli sonlar beriladi, ma'lumotlar slaydlar orqali chiqariladi, doskaga ilinadi, o`quvchilar mos sonni doskaga olib chiqib yopishtirishadi.

Nº	Nimani anglatadi	Sonlar
1	Shuncha davlatlar bilan hamkor	
2	Avtomobil yo'llari qurila boshlandi	
3	Shuncha ulush aholi yashaydi	
4	Urbanizatsiyasi darajasi	
5	Og'ir sanoatning ulushi	
6	Chorvoq suv omborining suv sig'imi	
7	Shuncha masofada rayon nishab	
8	Katta O`zbek traktining uzunligi	
9	Tog'larda yog'adigan yog'in miqdori	
10	Toshkent poytaxt deb e'lon qilingan yil	

Nº	Sonlar
1	1930 yil
2	100-150km
3	500-700mm
4	2,0mlrd kub.m
5	1/5
6	50%
7	2/3

8	100dan ortiq
9	1930-1940
10	700km

Nº	Nimani anglatadi	Sonlar
1	Shuncha davlatlar bilan hamkor	100dan ortiq
2	Avtomobil yo'llari qurila boshlandi	1930-1940
3	Mamlakat aholisining shuncha ulushi yashaydi	1/5
4	Urbanizatsiyasi darajasi	50%m
5	Og'ir sanoatning ulushi	2/3
6	Chorvoq suv omborining suv sig'imi	2,0mlrd kub.
7	Shuncha masofada rayon nishab	100-150km
8	Katta O'zbek traktining uzunligi	700km
9	Tog'larda yog'adigan yog'in miqdori	500-700mm
10	Toshkent poytaxt deb e'lon qilingan yil	1930 yil

II-topshiriq: Xarita bilan ishlash. 5'. Himoya-2 daqqaq.

Guruhlarga Toshkent iqtisodiy rayonining yozuvsız xaritasi beriladi. Berilgan obyektlarni joy joyiga joylashtiring va izohlang.

1-guruh: Yozuvsız xaritaga tabiiy, iqtisodiy, siyosiy qo'shni obyektlarni jolashtiring. (Toshkent iqtisodiy rayonini chegaradosh bo'lgan tabiiy, iqtrisodiy, siyosiy obyektlarni davlatlarni, iqtisodiy rayonlarni, tog'larni, daryolarni tushuring. Sirdaryo, Qorjontov, Ugom, Pskom, Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон, Qurama, Mirzacho'l, Farg'ona) tushuring

2-guruh: Yozuvsız xaritaga iqtisodiy rayonga tegishli tabiiy boyliklarni tushuring. (daryolarni, suv omborlarini, foydali qazilmalarni tushuring Chirchiq. Ohangaron, Tuyabo'g'iz, Chorvoq s. om., Ohangaron suv om., Angren qo'ng'ir ko'mir koni, Sargardon, Orkutsoy, Qo'rg'oshinkon, Qakmoqqir.)

3-guruh: Yozuvsız xaritaga iqtisodiy rayonning yirik sanoat shaharlarini va millioner shaharlarini tushuring. (Toshkent, G'azalkent, Angren, Chirchiq, Olmaliq, Yangiyo'l, Bekobod, Ohangaron)

III-topshiriq: Ma'lumotlar zanjiri.

Guruh a'zolari bittadan Toshkent iqtisodiy rayoniga tegishli ma'lumot berishlari kerak. Takrorlash, to'xtab qolish mumkin emas. Aks holda zanjir uzeladi va guruhlar bal ololmaydilar.

(IV-topshiriq: Sardorlar uchun topshiriq:

Doskada guruhlar zanjir mashqini bajarguncha sardorlar doskada masala ishlaydilar.

1-Sardor:

Berilgan ma'lumotlar asosida Toshkent viloyatining aholi zichligini toping:

Toshkent viloyatining aholisi 2695700kishi, maydoni-15300km.kv. 45kishi.

2-Sardor:

Berilgan ma'lumotlar asosida Toshkent shahrining migratsiya saldosini toping.

Toshkent shahrida immigratsiya 4050kishi, emmigratsiya 400 kishi. $4050-400=3658$ kishi.

3-sardor: Berilgan ma'lumotlar asosida Toshkent viloyatining urbanizatsiyasini toping.

Toshkent viloyatining jami aholisi-2695700 kishi, shaharda yashaydigan aholi-1328600 kishi. 49%

V. Darsni yakunlash:

G'olib gurujni aniqlash va o'quvchilarni baholash

Uyga vazifa- mavzu yuzasidan savollarga javoblar yozish, yozuvsız xaritaga sanoat shaharlarini tushurish, darslikning orqasidagi jadvallardan foydalanib, Toshkent shahar va Toshkent viloyatini zichligi va Toshkent viloyatini urbanizatsiyasini toping.